

## KURSANTLARING MADANIYATLARARO MULOQOT KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH UCHUN MASHQ VA TOPSHIRIQLAR

*Sh.I.Musayeva va S.S.Mengliyeva*

*O'zb. Res. Jamoat xavfsizligi universiteti  
"Tillarni o'rganish" kafedrasi o'qituvchilari*

**Annotatsiya:** Zamonaviy chet til ta'limi bilim berish bilan bir vaqtda madaniyatlararo muloqotga o'rgatishni ham nazarda tutadi. Madaniyatlararo muloqot ta'limi - bu milliy madaniyat va boshqa madaniyatlarni ongli o'rganish/o'rgatish usulidir. Ushbu maqola kursantlarning madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirish uchun mashq va topshiriqlar tizimini takomillashtirish hamda uni dars jarayoniga tadbiiq etishni muhokama qiladi.

**Kalit so'zlar:** kommunikativ kompetensiya, madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi, ingliz tilini o'qitish, metod, interfaol metodlar.

Bugungi kunda zamonaviy ta'limda xorijiy tillarni o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish keng tus olmoqda hamda uning natijalari sezilarli darajada ortib bormoqda. Albatta zamonaviy ped texnologiya va metodlarni dars jarayoniga tadbiiq etish har bir pedagogning imkoniyati va mahoratidan kelib chiqadi. Ushbu metodlarni dars jarayoniga tadbiiq etish kursantlarni o'qituvchi tomonidan berilayotgan bilimlarni yanada to'liq o'zlashtirilishiga olib keladi. Buning uchun pedagogdan mashg'ulot jarayonini maqsadli joriy etish, uni kursantlarga to'laqonli yetkazib bera olish kursantlarni til o'rganishga bo'lgan ishtiyoqini kuchayishiga olib keladi. Dars jarayonida "teacher centred" dan "student centred" ga o'tish, kursantlar faolligini oshirib borishda interfaol metodlardan o'rinli va unumli foydalanish, ularning mustaqilligini ta'minlash eng muhim omillardan biri sanaladi. Albatta bu jarayonda pedagog va kursantning faolliigi yanada oshib boradi.

Bunda kursantlarning madaniyatlararo muloqot kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi mashqlar tizimini oddiydan murakkabga qarab o'sib borish tamoyilini ta'minlash, mavzular mazmuni oralig'ida uzviyliyini ta'minlash, o'quv materiallarini tanlashda autentlik va ko'rgazmalilikka urg'u berish, har bir mavzu matnlarni o'zlashtirishga qaratilgan mashq va topshiriqlarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida kommunikativ yondashuvni qo'llagan holda tashkil etish, topshiriqlarni tayyorlashda kursantlar dunyoqarashini rivojlantirish, madaniyatlararo muloqotga layoqatini o'stirish maqsadida farqli va o'xshash tomonlarni qiyoslovchi topshiriqlarni ko'proq kiritish, kursantlarga taqdim etilayotgan matn va topshiriqlar tili o'rganilayotgan mamlakatning bugungi kundagi ijtimoiy

turmush tarzi va madaniy hayoti hamda ko‘proq harbiylarga taalluqli tomonlari bilan bog‘liq bo‘lishini ta‘minlash, o‘quv materiallari didaktik jihatdan madaniy muvofqlik tamoyiliga mutanosib kelishiga amal qilish tavsiya etiladi.

Mashq va topshiriqlar o‘quv mashg‘ulotlarining alohida turi bo‘lib, ular yordamida berilgan bilimlar asosida kursantlarda tegishli malaka va ko‘nikmalar shakllantiriladi. Bu kabi mashq va topshiriqlar boshqa tilni o‘rganish jarayonida asosan muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, keyingi paytlarda bunday topshiriqlarni ayrim metodistlar nutq topshiriqlari va til topshiriqlariga ajratishni tavsiya etmoqdalar<sup>1</sup>.

Mashq va topshiriqlar kim tomonidan belgilanganiga qarab turlicha tushiniladi. Professor Jack C.Richards vazifa, mashq va faoliyat o‘rtasidagi farqlarni quyidagicha ta‘rif etadi.<sup>2</sup> (1.-jadval)

1.-jadval

Mashq(exercise)	Faoliyat(activity)	Vazifa(task)
Mashq -bu tilning ba‘zi jihatlarini boshqariladigan, yo‘nalish beradigan yoki ochiq tugatish amaliyotini o‘z ichiga olgan o‘qitish jarayonidir. . A drill, a cloze activity(Cloze faoliyati), a reading comprehension passage(parchalarni o‘qib tushunish) bularni barchasini mashq deb qarash mumkin	Faoliyat atamasi umumiyroq bo‘lib, o‘quvchilarni kurs maqsadlari bilan bog‘liq bo‘lgan narsalarni qilishni o‘z ichiga olgan har qanday maqsadga muvofiq sinf protsedurasini anglatadi. Masalan, qo‘shiq kuylash, o‘yin o‘ynash, bahs-munozarada ishtirok etish, guruhli munozara o‘tkazish o'quv faoliyatining har xil turlari hisoblanadi.	Vazifa odatda quyidagicha aniqlanadi: Bu o‘quvchilar o‘zlarining mavjud til resurslaridan yoki vazifadan oldingi ishlarda taqdim etilganlardan foydalangan holda bajaradigan narsadir. Bu shunchaki tilni o‘rganish bilan bog‘liq bo‘lmagan natijaga ega, ammo o‘quvchi vazifani bajarayotganda tilni egallash sodir bo‘lishi mumkin. Bu o‘quvchilar ehtiyojlariga mos keladi. Bu ma‘noga nisbatan diqqatni jamlashni o‘z ichiga oladi. Ikki yoki undan ortiq o‘quvchilarni jalb qilgan holda bajarish mumkin. Aloqa strategiyasi va interaktiv ko‘nikmalardan foydalanish mumkin. Bu tildan foydalanish haqida mulohaza yuritish uchun imkoniyatlar yaratadi.

Kursantlar uchun chet tili mashg‘ulotlari davomida mamlakatshunoslikka oid materiallardan foydalanish kursantlardagi ichki motivatsion ruhni oshiradi, ularning madaniyatlararo muloqot kompetensiyalarini rivojlanishiga turtki bo‘lib xizmat qiladi.

<sup>1</sup>Мухитдинова Х.С. Таълим босқичларида ўзбек тили ўқитилиши узлуксизлигини таъминлашнинг илимий-методик асосларини такомиллаштириш: Пед.фан.док....дисс.-2011.-82 б.

<sup>2</sup> Jack C.Richards. Differences between task, exercise, activity. The official website of educator Jack C. Richards.

Bugungi kunda har bir pedagog dars jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilishi ularning oldiga qo'yilayotgan eng muhim talablardan biridir. Turli interfaol usullardan foydalanish, kursantlarni dars jarayonida faol ishtirokchiga aylanishlariga olib keladi.

Zamonaviy ta'limda kursantlarning chet til bo'yicha madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirish zarurligi haqida fikrlar keng tarqalgan. Bunga hozirgi kunda jahon miqyosida kechayotgan integrallashuv jarayonlari natijasida kelib chiqayotgan nutqiy muloqotga nisbatan ehtiyojni sabab qilib ko'rsatish mumkin, chunki turli soha mutaxassislari ko'p hollarda xorijlik hamkasblari va hamkorlari bilan bo'lgan muloqot jarayonida bir-birlarini yaxshi tushuna olmay noqulay ahvolga tushib qoladi. Shuning uchun ham harbiy ta'lim bitiruvchilarida ham o'rganilayotgan xorijiy tildagi madaniyatlararo muloqot kompetensiyani shakllantirish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Ushbu masala mamlakatimizdagi harbiy ta'lim muassasalarida chet tillarni o'qitishga oid davlat hujjatlarida ham o'z aksini topgan.

Malakali mutaxassis o'z kasbiy faoliyati bilan bog'liq nutqiy muloqot jarayonida chet tildan erkin foydalana olish mutaxassisga qo'yilayotgan standart talablardan biri hisoblanadi.<sup>3</sup> Darhaqiqat, bugungi zamonaviy pedagogik jarayon nafaqat filologik oliy ta'lim talabalarini, balki nofilologik oliy ta'lim muassasalari talabalarini bilan bir qatorda oliy harbiy ta'lim kursantlarining ham o'z mutahassisliklari bo'yicha xorijiy til bilimiga ega bo'lishlikni talab qilmoqda.

Chet tili o'qitishda uch muhim omilga e'tibor qaratish lozim. Bularga til (til hodisalari), nutq hamda nutqiy faoliyatni kiritish mumkin. Ular nutqiy muloqotni amalga oshiruvchi muhim vositalardir. Nutqiy malakalarni hosil qilish nazariy jihatdan faoliyat nazariyasi (L.S.Vigotskiy, A.N.Leontyev) va aqliy faoliyatni bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasiga (P. Y. Galperin)<sup>4</sup> asoslangan. Ushbu nazariyalar chet til vositalari yordamida nutqiy muloqotni amalga oshirishni ta'minlovchi nutqiy malakalarni shakllantirishga qaratilgan kommunikativ metodning kelib chiqishida ham muhim rol o'ynaydi. Kommunikativ metodning asosiy prinsiplaridan biri o'qitish jarayonini nutqqa yo'naltirilgan holda tashkil qilishdir. Bu esa o'quv jarayonini maksimal darajada nutqiy vaziyatlarga asoslangan holda tashkil qilishga erishish zarurligini taqozo etadi, chunki nutqiy vaziyatlar kursantlarni faollashtiribgina qolmasdan o'quv jarayonidagi nutqiy muloqotni tabiiy nutq jarayoniga yaqinlashtiradi.

Ba'zi bir topshiriqlarni madaniyatlararo muloqotga moslashtirish mumkin, ya'ni bunda o'qituvchidan pedagogik mahorat talab qilinadi. Darslikdagi ayrim vazifalarda qiyoslash imkoniyatlari yaratilganini ko'rish mumkin. Berilgan vazifani yoki mashqni

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida PQ-1875-sonli qarori // Xalq so'zi. 2012 yil, 11 dekabr.

<sup>4</sup> Гуркина А. Л. Развитие иноязычной коммуникативной компетенции как основная цель обучения иностранному языку // Молодой ученый. – Москва, 2015. – № 12. – С. 726-729.

malakali o'qituvchi vaziyatga moslab, kursantlarning madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirishga yordam beradigan darajada qayta talqin qilishi mumkin. Misol uchun: (2-jadval)

2-jadval

Mavzu nomi	Mavjud topshiriq	Mavjud topshiriqning maqsadi	Darslikda taklif etilgan metod	Qo'shimcha taklif etilayotgan topshiriq	Taklif etilayotgan topshiriqning maqsadi	Taklif etilayotgan metod
Unit 1 Parachute regiment. Alpha. P coy.	2-topshiriqda Britaniya Qurolli kuchlarining parashutchilar bo'linmasi tarixi va uning tuzilishi hamda unda olib boriladigan mashg'ulotlar tartibi haqidagi matn bilan tanishadilar.	- kursantlar til o'rganish orqali ikkinchi bir davlatning tarixi haqida ma'lumotga ega bo'ladi.	-matnni o'qib savollarga javob bering	O'qituvchi keyingi topshiriqning davomi sifatida Describe the training of cadets in your battalion. Talk about one of the subjects (kursantlarning battalyondagi mashg'ulotlarini tasvirlang. Quyidagilardan biri haqida gapiring) ... 1.Adaptin g to life in the military(harbiy hayotga moslashish) 2.Classes and courses(mashg'ulot va kurslar) 3.Military training(harbiy mashg'ulotlar) 4.Physical training(jismoniy mashg'ulotlar)	- kursantlarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish; - kursantlarning kelajakda xorijiy davlatlarga malaka oshirishga borganlarida boshqa davlat vakillari bilan harbiy hayotlari haqida muloqot qilganda ularda muloqotga kirishishda qiyinchilik tug'dirmaslik uchun foydalanishimiz mumkin.	- Work in small group - Venn diagram - Project work

Yana bir boshqa misolni keltirib o'tsak. Unit 2, The battalion. Bravo. Battalion HQ mavzusida kursantlar ingliz tilida qanday qilib buyruq berish va talab qilishni hamda murojat shakllarini o'rganishadi. Bu albatta muloqot jarayonida juda muhim hisoblanadi. Chunki ayrim so'z va iboralarni to'g'ri qo'llamaslik boshqa davlat vakili bilan muloqotda tushunmovchiliklarni, muommolarni keltirib chiqarishi mumkin. Misol uchun:

Making request and giving orders:(talab qilish(so'rash) va buyruq berish)<sup>5</sup>

<sup>5</sup> Campaign. English for the military. Simon Mellor – Clark, Yvonne Baker de Altamirano. Part II, p: 16.

- **request** eg: Could you complete this for me please, sir?(very polite)-ushbu gapda kursant kimga murojaat qilayotganini va qanday murojaat qilishni aniq bilishi kerak. Ushbu gapda **could, please va sir** so‘zlari kata ahamiyatga egaligini bir kursantlarga alohida ta’kidlab o‘tishimiz darkor. **Could** va **please** – judayam muloyimlik bilan iltimos qilish shakli hisoblansa, **sir**- ingliz armiyasida erkak ofitserlarga nisbatan ishlatiladi. Bizning o‘zbek armiyasida esa “**sir**” so‘zining o‘rniga “**comrade**” so‘zi bilan birgalikda uning unvoni ham qo‘shib ishlatiladi. Ushbu jumlada so‘zni to‘g‘ri qo‘llash o‘zga millat madaniyatiga hurmat va e’tiborni anglatadi.

eg: Could you process this transfer application, corporal? (polite) – ushbu misolda esa muloyimlik yo‘li bila murojaat qilinyabdi, chunki bu yerda faqat **could** ni o‘zi **please** so‘zisiz ishlatilyabdi va harbiy xizmatchiga unvoni bilan murojaat qilinyabdi.

eg: Can you make the copies for me? (neutral) – bu netral holatda so‘rash hisoblanadi. Chunki ingliz tilida **can** modal fe’li shunchaki so‘ralganda ishlatiladi va **could** ga qaraganda kuchsizroq ma’noga ega bo‘ladi.

- **agreement** eg: Yes, sir. - **sir**- ingliz armiyasida erkak ofitserlarga nisbatan ishlatiladi. Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, o‘zbek armiyasida esa **Yes, sir.** jumlasining o‘rnida **Yes, comrade major.** kabi jumla ishlatiladi. Ushbu jumlada kursantlarga so‘zni o‘rnida va to‘g‘ri qo‘llashni, o‘zga millat madaniyatiga hurmat va e’tiborda bo‘lib murojaat qilishni o‘rgatish lozim.

- **Rejection** eg:I’m sorry sir,Captain Marks told me to stay here. Harbiylarda buyruqlar so‘zsiz ijro etiladi, lekin ba’zida boshqa ofitserning buyrug‘ini kutib turgan paytda uni yuqorida keltirilgan misoldagidek rad etish mumkin. Ingliz tilida biror kishining iltimosini yoki buyrug‘ini rad etayotganimizda albatta “**I’m sorry sir/ma’am**” birikmasini ishlatishni unutmaslik kerakligini kursantlarga o‘rgatish lozim.

- **Order** eg:Get out, Harris! Ushbu buyruq ohangidagi gap esa o‘zbek tildagi variant bilan deyarli bir xil ishlatiladi.

- **Acceptance** eg:Yes, Corporal. Ushbu holatda esa Yes, comrade major/leutenant...kabi variantda javob beriladi.

Bundan tashqari ingliz harbiylarida murojaat shakllari ham o‘zbek harbiylarinikiga nisbatan farq qiladi. Quyida ushbu murojaat shakllarini jadval asosida keltirib o‘tamiz. Bu yerda biz kursantlarga ofitser tarkibi va ofitser bo‘lmagan tarkibni bir-biriga qanday murojaat qilishini o‘rgatishimiz hamda bularni yodda saqlashlarini ta’kidlab o‘tishimiz darkor. **(3-jadval)**

**Modes of address<sup>6</sup>**

<b>rank</b>	<b>Address..</b>	<b>By...</b>
Soldiers,junior NCOs(non-commissioned officer)	Senior NCOs/CSM	Rank
Soldiers,NCOs(non-commissioned officer)	RSM	Sir/ma'am
All enlisted	Officers	Sir/ma'am
Officers, NCOs(non-commissioned officer)	Enlisted personnel	Rank+name,rank
Officers	NCOs and WOs(warrant officers)	Rank+name or rank only
Junior officers	Officers up to captain	First name
	Senior officers	Sir/ma'am
A colour/staff sergeant may be addressed as Colour or Staff.Corporals and lance corporals are addressed as Corporal and lieutenant colonels as Colonel		

AQSH da ham ijtimoiy vaziyatlarda o'ziga xos hususiyatlar bor, misol uchun siz kimnidir uyiga kechki taomga yoki tushlikka taklif etilganda quyidagi urf-odatlarini bilish kerak. Uchrashuvga o'z vaqtida yetib boorish, agar kechiksangiz albatta uzr so'rash, gul yoki shokalad yaxshi sovg'a, lekin davlatingizda mashxur bo'lgan suvinerlardan sovg'a sifatida olish undan ko'ra yaxshiroq. Agar sizga ketishga qandaydir belgi yoki imo-ishora berilsa, ortiq u yerda qolmaslik kerak. Chunki bu munosabatlar o'zga millat vakili bilan bo'ladigan muloqotda uchrashi mumkin bo'lgan muommolarni oldini olishda yordam beradi. Quyida ushbu vaziyatda ishlatiladigan so'z birikmalari va frazeologik birliklar qatnashgan misollarni keltirib o'tamiz.

Eg: -Would you like to join us? Yes, of course.

-Would you like to stay and have something to eat? -Thank you very much. I'd love to, but I'm afraid I'm on duty. Perhaps another time.

-Would you like a second helping? There's plenty more. -Oh, it was really delicious but I think I've had enough, thank you.

-We have brought you a box of chocolates. We have really enjoyed ourselves. – Oh, thank you very much but it wasn't really necessary.

-Well, thanks for a great evening. We have really enjoyed ourselves. – Yes, it's been great. We'll have to do it again some time.

<sup>6</sup> Campaign. English for the military. Simon Mellor – Clark, Yvonne Baker de Altamirano. Part II, p: 17.

-I'm sorry, I'm late. I've only just finished work. – Oh, that's all right. We haven't started yet.

Har bir kursant ushbu birikmalardan o'z o'rnida va vaqtida fodalanishni bilishlari kerak. Shundagina ular madaniyatlararo muloqot jarayonida muommolarga duch kelmasliklari mumkin. -Would you like to stay and have something to eat? - Thank you very much. I'd love to, but I'm afraid I'm on duty. Perhaps another time. Kursantlar o'zaro muloqot jarayonida qilingab taklifga nisbatan qisqagina No, thanks/No, I can't. ko'rinishida javob berishi mumkin emas. Chunki bu kabi javob berish inglizlarda taklifga nisbatan qo'pol javob qaytarish hisoblanadi. Oldin muloyimlik bilan raxmat aytib, keyin uzr so'ragan holda rad etish sababini tushuntirish lozim.

Ushbu birikmalarni kursantlarga o'qitishda biz ko'proq CLT yondashuviga asoslangan metodlardan foydalanishni taklif etamiz, chunki ushbu yondashuv kursantlarning muloqot kompetensiyasini rivojlantirish uchun yetarlicha yordam beradi.


Kursantlarga bir mamlakat bilan boshqasi o'rtasidagi urf-odat va an'analari o'rtasida turli hil farqlar borligi, hamda mahalliy urf-odatlar, shaxsiy munosabatlar, yoki madaniy bilimlarning yetishmasligi ayniqsa ijtimoiy vaziyatlarda doimo qiyinchiliklar tug'dirishini darslar davomida tushuntirib borish lozim.

Harbiy ta'lim muassasalarida chet til o'qitishdan ko'zlangan amaliy maqsadda kursantlarning bo'lg'usi kasblariga oid mutaxassislik mavzularida muloqot qila olish, axborot almashish malakasini shakllantirish emas, balki o'zga til egasining turmush tarzi, madaniyatidan ham xabardor "shaxs" tayyorlash talab etilmoqda. Til o'rganuvchilarni o'quv jarayonida faollashtirish va ularda chet tildagi nutqiy muloqotga nisbatan motivatsiya hosil qilishda zamonaviy metodika didaktik o'yinlar, muammoli o'qitish texnologiyalaridan foydalanishni tavsiya qiladi.

Didaktik o'yinlar kursantlarga chet tildagi nutq jarayonida kelib chiqadigan psixologik to'siqlarni olib tashlashga yordam bersa, muammoli o'qitish esa o'z o'rnida kursantlarda kreativlikni shakllantiradi. Ular turli muammoli vaziyatlarda muammoni hal qilish yuzasidan o'z fikrlarini erkin bayon qiladi, chunki ularning fikrlari tanqid qilinmaydi. Bu esa kursantlarni nutqiy faollashuvga undaydi. Rolli o'yinlardan "intervyu" o'yinini misol qilib keltirish mumkin. Bu o'yinga ko'ra, kursantlardan biri matbuot brifingini beruvchi harbiy shaxs sifatida ikkinchi bir kursant yoki guruh mutaxassisdan ma'lum bir mavzu yuzasidan yo'riqnomani eshitadi yoki qabul qilib oladi. Bu albatta ularda muloqot kompetensiyasini rivojlantirishga katta yordam beradi. Agar brifing materiali aynan xorijiy til vakili tomonida foydalanilgan ma'lumotdan olingan bo'lsa, bu maqsadga muvofiq bo'lardi, ya'ni bu madaniyatlararo muloqotda duch kelishimiz mumkin bo'lgan ayrim to'siqlarni yengib o'tishga yordam beradi.

Bular asosan rasmiy ma'lumot hisoblangani uchun, quyidagilarni hisobga olish kerak bo'ladi: axborot berish; tasvirlash; xabar berish; axborot olish; biror narsa, voqea-hodisani tushuntirib berish yoki sharhlab berish; minnatdorchilik bildirish va hokazo. Ular ma'lumot berishdagi boshlang'ich, tayanch nuqta hisoblanadi va brifingdan ko'zlangan maqsad hamda vazifaga ko'ra tanlanadi. Shuningdek, brifing berayotgan shaxs, avvalo, brifing mazmunini belgilab, kerakli grammatik strukturalar va leksik birliklarni tanlab olishi hamda brifing turlariga ko'ra uni yozish bilan bog'liq qoidalarni bilishi kerak. Brifing berish qoidalari deganda uning tartibi, murojaat shakli, brifingga kirish, asosiy va yakuniy qismlarida qo'llaniladigan iboralari kabilar tushuniladi. Bularni o'rgatishda o'qituvchi tayyor materiallardan foydalanishi mumkin.

PBL(Problem based learning-muommoga asoslangan o'rganish) foydalanilganda kursantlar o'qituvchi tomonidan berilgan muammoni hal qilish yuzasidan og'zaki tarzda o'z fikrlarini bildirishadi va uni isbotlab berishga harakat qilishadi. Bu individual yoki guruh-guruh bo'lib ishlash orqali amalga oshiriladi. So'ngra har bir guruh liderlari o'zlari taklif qilgan muammoning yechimini prezentatsiya(taqdimot) qilib berishadi va ular birgalikda muammoning eng optimal variantini topishadi. Misol uchun quyidagi uch xil rasmdagi belgilarni tasvirlash va muommoni hal etish uchun avvalo guruhni 3 ta kichik guruhlarga bo'lib olamiz va har bir guruhga aynan mana shu uch xil rasmni tasvirlash va muommoni hal etish vazifasi qo'yiladi.



1-rasm

Tayyorlanish uchun yetarlicha vaqt beriladi hamda ular guruh taqdimotini tayyorlaydi. Har bir guruh taqdimotidan so'ng muhokama qilinadi. Bu bilan esa guruhlar o'zaro muloqotga kirishadi. Agar fikrlar har xil bo'lsa, ular o'z fikrlarini isbotlashga harakat qiladi.

Yoki biror yaralangan xarbiyga birinchi yordam ko'rsatish muommosini ham qo'yish mumkin. Bunda tanlangan material audio yoki video shaklda til sohiblari tomonidan yozilgan bo'lsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Albatta joy-makon, vaqt, sharoit, ob-havo, jihozlar va imkoniyat tushuntiriladi va ular shu imkoniyatlardan chiqib ketmagan holda qanday yordam berishni muhokama qilishlari mumkin hamda eng optimal deb topilgan javob qabul qilinadi. Bu ham albatta kursantlarga real




ma'lumotdan kelib chiqqan holda vaziyatdan chiqishda qanday so'z va iboralardan foydalanishni hamda muloqotni o'stirishga yordam beradi.

J.C.Richards va T.S.Rojerslarning fikricha "haqiqiy muloqotni til o'rganishning maqsadiga aylantirish, o'rganuvchilarga aniqlik va ravonlikni rivojlantirish uchun imkoniyatlar yaratish, o'rganuvchidagi xatolar undagi kommunikativ kompetensiyani rivojlanayotganini ko'rsatadi, turli ko'nikmalarni ya'ni gapirish, o'qish, tinglash va yozish kabilarni birgalikda qo'llash kerak chunki ular haqiqiy hayotda doim birgalikda keladi"<sup>7</sup> deb ta'kidlab o'tadi. Biz ham ushbu fikrni yoqlagan holda kursantlarda 4 til ko'nikmalarini birgalikda qo'llashga va rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmog'imiz kerak hamda kursantlarda kommunikativlikni rivojlantirish uchun CLT(Communicative language teaching) yondashuvi asosidagi metodlarni va interaktiv metodlarini dars jarayoniga yanada ko'proq tadbiiq etishimiz kerak.

CLT yondashuvidan foydalanayotgan o'qituvchilari sinf mashg'ulotlarini maqsadli tilda muloqot kompetensiyasini rivojlantirish uchun o'zlari ishongan narsalarga qarab tanlashlari mumkin. Ular faoliyat darajasiga qarab farq qiladi hamda hamkorlik, ravonlik va qulaylikni targ'ib qiladi. Quyidagilar CLT yondashuvining asosiy metodlari hisoblanadi: role play, interviews, group work, information gap, opinion sharing, scavenger hunt, jigsaw, task completion activities, information gathering, information transfer va boshqalar.

Quyida biz ham kursantlarning madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini Scavenger hunt metodi yordamida rivojlantirishni ko'rib chiqamiz. Va biz ushbu metodni takomillashtirgan holda "Scavenger culture hunt" deb nomlaymiz hamda undan aynan sinf xonasida qanday foydalanish ko'proq unumli bo'lishini muhokama qilib o'tamiz. Ushbu metoddan foydalanish **to'rt bosqichda** bajariladi. Avvalo kursantlarni ikki guruhga bo'lib olamiz va guruhlarga ikki xil vazifa berilib har ikki guruhning bajaradigan vazifalari alohida tushuntiriladi, umumiy guruhga Angliy madaniyati ifodalovchi qisqa metrajli film ko'rsatiladi. Birinchi guruh filmdan "Visible culture"ni ifodalovchi narsa yoki voqea xodilarni topadi, ikkinchi guruh esa "Invisible culture"ni ifodalovchi narsa yoki voqea xodilarni topishi kerak bo'ladi. Bu yerda muommo avvalo kursantlar "Visible culture" va "Invisible culture"ga nimalr kirishini bilishi kerak. Shuning uchun **Birinchi bosqichda** o'qituvchi filmni qo'yishdan oldin kursantlar bilan "brainstorming" metodidan foydalangan holda doskada "Kluster" metodi yordamida ushbu muommoni hal qiladi. Misol uchun:

<sup>7</sup> Richards, J.C. and T.S. Rodgers (2014). Approaches and methods in language teaching. Cambridge: Cambridge University Press



2-rasm

Kursantlar “Visible va “Invisible culture” haqida umumiy tushunchaga ega bo‘lishgandan so‘ng, **ikkinchi bosqichda** o‘qituvchi ularga Angliya madaniyati haqidagi qisqa video rolikni namoyish etadi. Kursantlar video rolikni ko‘rib bo‘lgandan keyin o‘zlariga tegishli vazifani bajaradilar, ya’ni birinchi guruh “Visible culture”ga kiruvchi ma’lumotlarni oladi, ikkinchi guruh esa “Invisible culture”ga kiruvchi ma’lumotlarni yozib oladi. **Uchinchi bosqichda** ular to‘plagan ma’lumotlari asosida “Culture differences & culture similarities” mashg‘ulotini bajarishadi. Ushbu holatda ular o‘z mamlakati madaniyati bilan olgan ma’lumotlarini qiyoslab, kichik “group project work” ni tayyorlashadi. **To‘rtinchi bosqichda** ushbu “project work”ni sinfga taqdim etadi. Ikkala guruhning taqdimotidan so‘ng guruhda o‘rganilgan ma’lumotlar bo‘yicha umumiy muhokama bo‘lib o‘tadi.

Ushbu metod kursantlarga Angliya madaniyatini aks ettiruvchi tarihi, urf-odat va an’analar, madaniy joylar, milliy taomlari kabi qiziqarli va aniq faktlarni oson va qulay usulda o‘rganish bilan birga madaniyatlararo muloqot kompetensiyalarini rivojlantiradilar. Ushbu metod yordamida kursantlar mahalliy til vakillari muloqot vaziyatini to‘g‘ri baholashni, suhbat jarayonida suhbatdoshining fikrini to‘g‘ri anglashni, madaniyatlar o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarni til o‘rganish bilan hamohang tarzda o‘zlashtirishini yana bir bor sinovdan o‘tkazdik. Shu bilan bir qatorda kursantlar o‘zaro suhbat va muhokama jarayonida o‘zlariga bo‘lgan ishonch, jamoada ishlash, hamkorlikda ishlash hamda qobiliyatni baholay olishni o‘rganishgan bo‘lsa, taqdimot jarayonida tildan foydalanishni va jamoa oldida axborot bera olish qobiliyatlarini sinovdan o‘tkazishadi. Eng asosiysi bu metoddan foydalanish kursantlarga rohatlanib ishlashga yo‘l ochib beradi. Biz tadqiqotimiz jarayonida ushbu metoddan sinf xonasida ham foydalanib yaxshi natija olish mumkinligiga ishonchimiz komil bo‘ldi.

Yuqorida ta’kidlab o’tilganidek, Scavenger hunt metodi kursantlarning madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirishda va ikki madaniyat haqidagi ma’lumotlarni til o’rganish orqali o’zlashtirish hamda muloqot jarayonida yuz berishi mumkin bo’lgan muammo va qiyinchiliklarni oldini olishda yordam beradi.

Campaign 1 darsligi Unit 3 Alpha- “Great military leader” mavzusida Angliya, Amerika, Germaniya, Rossiyaning buyuk harbiy sarkardalari haqida yoritilgan va shunga oid mashqlar tizmi ishlab chiqilgan.

Task 1. Work in pairs. Complete the information. Use these words.


Nationality: German, American, Chinese		
Date: 1805, 1885, 1729		
		
<b>Alexander Vailevich Suvorov</b>	<b>George Washington</b>	<b>Horatio Nelson</b>
(1)..... – 1800   Russian Field Marshal	1732 – 1799   (2)..... General	1758 – (3).....   British Admiral
		
<b>Mao Zedong</b>	<b>George S. Patton</b>	<b>Erwin Rommel</b>
1893 – 1976   (4)..... Revolutionary	(5)..... – 1945   American General	1891 – 1944   (6)..... Field Marshal

### 3-rasm

Ushbu topshiriqni kursantlar mustaqil, yakka tartibda bajaradilar. Keyin esa juftlikda bir-birlarining javoblari solishtirib muhokama qiladilar. Shundan so’ng o’qituvchi tomonidan ushbu shaxslar haqidagi audio ma’lumot eshittiriladi va birgalikda javoblar tekshiriladi. Keyingi bosqichda o’qituvchi kursantlarga Venn diagrammasi haqida ma’lumot berib, sinfni 2 guruhga ajratadi va 1-guruhga mustaqil ish vazifasi sifatida Amir Temur, 2-guruhga esa Horatio Nelson haqida ma’lumot to’plash va taqdimot tayyorlab kelish berilgan bo’ladi. Guruhlar bir-birlarining

ma'lumotlarini tinglashadi va doskadagi Venn diagrammasini birgalikda to'ldirishadi, "Great military leaders: Amir Temur and Horatio Nelson" haqida farqli va o'xshash tomonlarini topib yozishadi hamda birgalikda muhokama qilishadi. Topshiriq so'ngida umumiy xulosa qilishadi. Ma'lumotni bu usulda o'rganish kursantlarni til o'rganish bilan bir qatorda nafaqat tili o'rganilayotgan mamlakatning tarixini o'z tariximizni ham birgalikda hamohang qilib o'rganib, madaniyatga oid bilimlarini ham mustahkamlab boradi.

### **VENN DIAGRAMMASI**



**4-rasm**

Ma'lumki, biz kursantlar bilan biror matn ustida ishlash uchun avvalo matnning notanish so'zlarini o'rganib chiqamiz, keyin unga oid topshiriqlar bajaramiz undan so'ng esa mustahkamlash uchun mashqlar bajaramiz.

Matn oldi mashqlarda biz "Brainstorming-aqliy hujum", "KWL-BBB" kabi grafik organayzerlardan foydalansak ya'ni, matn sarlavhasi asosida matnda aytib o'tilgan muammolar bo'yicha kursantlarning fundamental bor bilimlarini aniqlash, savollarga javoblar kabi mashqlardan foydalaniladi va shu asosda mavzuni kursantlar uchun qiziqarliroq qilib tashkil etiladi. Matn usti bosqichiga jadvalni to'ldirish, matn rejasini tuzish yoki matn haqida bilishni hohlagan savollarni tuzish, tushirib qoldirilgan so'zlarni qo'yish, to'g'ri/noto'g'ri mulohazalarni aniqlash, rasmlarni matndagi gaplar bilan birga muvofiqlashtirish, matnni paragraflarga bo'lish va paragraflarga sarlavha qo'yish kabi topshiriqlar bajariladi. Matn osti bosqichida xulosaviy fikrlar berish, ya'ni matnda ko'tarilgan har bir masalaga o'z munosabatini bildirish, matn tuzilishidan kelib chiqib, boshqa janrda o'z matnini tuzish va h.k. kiradi.

Taqdimot yordamida kursantlarga tarixiy buyuk sarkardalar Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur, Jaloliddin Manguberdi, Sobir Rahimov, Spartak, buyuk Aleksandr, Suvorov, Kutuzov, Yuliy Sezar, Napoleon, Horatio Nelson, Jeorg Smis Patton, Vinston Cherrhillarning rasmlari namoyish qilib, kursantlarni kichik guruhlarga bo'lib rasmlarga oid matnlar tarqatiladi va har bir guruh "Venn" diagrammasi yordamida uchtadan harbiy sarkardaning o'xshash va farqli tomonlarini

topib jadvalni to'ldirib yozadilar, keyin har bir guruh o'zlarining ishlarini boshqa guruhlar oldida taqdim etadilar. Taqdimot jarayonida bu sarkardalarning yashash sharoiti, turmush tarzi, ijtimoiy-madaniy faoliyati, harbiy faoliyati va qaysi davlatlar bilan ijtimoiy-madaniy, siyosiy aloqalar olib borgan haqida ham ma'lumot beriladi. Kursantlarga yuqorida qayd etilgan buyuk sarkardalar yashagan davrda xalqlarning ijtimoiy-madaniy hayotini yoritib berish vazifasi beriladi. Ular bu jarayonda o'tmish va hozirgi vaqtdagi tafovutlarni ko'rsatib beradi. Bunda kursantlar boshqa tarixiy manbalarga murojaat qilishi ko'zda tutiladi. Vazifani bajarish jarayonida kursantlar **“Kichik guruhlarda ishlash”** metodini qo'llab o'zaro ma'lumot almashadilar.

Ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, mashg'ulot davomida an'anaviy metodlarni qo'llash, ta'lim oluvchilarning ma'lumotni eslab qolish darajasining eng yuqori ko'rsatkichi 30% ni tashkil qilsa, noan'anaviy metodalar qo'llanilganda esa bundanda yaxshiroq natijaga erishishi mumkin.

Tadqiqot ishi jarayonida Jamoat xavfsizlik universiteti 2 va 3-4 –kurs kursantlari uchun «Course-book English for the 2nd year cadets» and «Course-book English for the 3<sup>rd</sup> and 4<sup>th</sup> year cadets» ingliz tili darsliklari va oliy harbiy ta'lim muassasalari uchun mo'ljallangan o'zbekcha-ruscha-inglizcha harbiy so'zlashgich yaratildi hamda amaliyotga tadbiiq etildi. Darslikdagi mashqlar osondan-qiyinga qarab yo'naltirilgan va topshiriqlar mavzuga kirish, yangi so'zlar(leksika),matnlar va uni mustahkamlash uchun mashqlar, grammatika hamda yozuv va nutqni rivojlantiruvchi mashqlar ketma ketlikda joylashtirilgan.

Xulosa qilib aytganda, kursantlarning madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirishda mashq va topshiriqlar tizimini ko'proq ko'rgazmalilikka asoslanib, o'zaro hamkorlikda bajariladigan shakllarda tashkil etish ularni faollikka chaqiradi hamda kutilgan natijalarga olib keladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Мухитдинова Х.С. Таълим босқичларида ўзбек тили ўқитилиши узлуксизлигини таъминлашнинг илмий-методик асосларини такомиллаштириш: Пед.фан.док....дисс.-2011.-82 б.
2. Jack C.Richards. Differences between task, exercise, activity. The official website of educator Jack C. Richards.
3. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida PQ-1875-sonli qarori// Xalq so'zi. 2012 yil, 11 dekabr.
4. Гуркина А. Л. Развитие иноязычной коммуникативной компетенции как основная цель обучения иностранному языку // Молодой ученый. – Москва, 2015. – № 12. – С. 726-729.
5. Campaign. English for the military. Simon Mellor – Clark, Yvonne Baker de Altamirano. Part II, p: 16.
6. Campaign. English for the military. Simon Mellor – Clark, Yvonne Baker de Altamirano. Part II, p: 17.
7. Richards,J.C. and T.S.Rodgers(2014). Approaches and methods in language teaching. Cambridge: Cambridge University Press